Umumiy o'rta ta'limda mexanika masalalarini yechish metodikasi va o'qitish jarayonining didaktik asoslari	914
<i>Toxirova Maxfuzaxon Otaqo'ziyevna</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagogalarining kasbiy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish	916
<i>Xabibullayeva Sayyoraxon Maxamadali qizi</i>	
TRIZ va kreativ pedagogika: boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish	919
<i>Ortiqova Zulfiya Nurmaxammatovna, Fayzullayeva Nazokat Uchqunovna</i>	
Maktab ta'limi uchun mobil ilova yaratishda MIT APP inventor platformasidan foydalanish	922
<i>Tangirov Xurram Ergashevich, Xo'jamqulova Dilso'z Bahodir qizi</i>	
Pedagogical Methods for Improving Students' Creative Thinking as they Learn	927
<i>Akhmedov Alisher Astanovich, Yarmuhamedov Nabijon</i>	
Implementation Outcomes and Development Prospects of the Social And Legal Club in the Secondary Vocational Education System as a Tool for Delivering Social Services	932
<i>Makhmudova Ugiloy Baxtiyarovna</i>	
Educational Physics Experiments: Methods and Didactic Strategies for Developing Critical Thinking in Students	935
<i>Chakkanov Fakhriddin Xusanovich</i>	
Current Research and Suggestions on The Impact of Physical Activity on Adolescents' Mental Health	938
<i>Irgashev Shokhruxh Khasanovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan zamonaviy pedagogik talablar	941
<i>Gaziyeva Nigora shamsiddinovna, Abdiraxmonova Nilufar Muxiddinovna</i>	
Eshituv va fonematik idrokni rivojlantirishda neyropsixologik o'yin usullari	945
<i>Lutfullayeva Sadoqat Muzaffar qizi, Axmedova Zuxra Mirzabekovna</i>	
Metodlarning turlari va nazariy asoslari	948
<i>Murodova Durdona Rayimjon qizi, Ashurova Hulkaroy Ma'rufjon qizi</i>	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining tizimli tafakkurini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash samaradorligini aniqlash: pedagogik tajriba-sinov natijalari va matematik-statistik tahlil	952
<i>Mustafaqulova Dildora Ismatullayevna</i>	
Raqamli texnologiya ta'limga imkoniyatmi yoki xavf?	960
<i>Otanazarova Mehriniso Abdusharif qizi</i>	
Zamonaviy sharoitlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borish uslubiyoti va unga qo'yilayotgan talablar	963
<i>Ortiqova Nargiza Akramovna, Suvonqulova Muxabbat Otamurot qizi</i>	
Interactive Grammar Learning Methods and their Significance for Non-Philological Education Students .	969
<i>Almatova Umida Islomovna</i>	
Berilganlar bazasi konsepsiyalarining evolyutsiyasi va zamonaviy rivojlanish bosqichlari.....	975
<i>Nosirova Shohista Elmurodovna</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirishda tarbiyachining pedagogik ahamiyati.....	980
<i>Kadirova Shaxnoza Xudoyberdiyevna</i>	
Autentik matnlar orqali o'quvchilarda o'qishga motivatsiya shakllantirish	987
<i>Usmonova Gulhumor Qo'ldashboy qizi</i>	
Zamonaviy ta'lim tizimida "Aralash ta'lim (Blended Learning)" texnologiyasining joriy etilishi.....	991
<i>Sh. D. Ablakulov</i>	
Ko'paytirish amalini o'rgatishga zamonaviy yondashuv (suv vositasida)	995
<i>Ismoilov Bobur Toxirovich</i>	
WEB dasturlash fanining ahamiyati va rivojlanish tendensiyalari.....	1000
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyeich, Abdullayev Javohirbek Zokirjon o'g'li</i>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida metakognitiv kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-metodik xususiyatlari	1005
<i>Sattorova Go'zalxon Mamadaminovna</i>	
Reflective Technologies of Development of Sanogen Thinking in Students.....	1010
<i>Ismailov Murodulla Kahramonovich</i>	
Tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari.....	1014
<i>Avazova Farangiz Ixtiyor qizi</i>	

Surxon adabiy maktabi: Usmon Azim va Shafoat Rahmatulla Termiziy ijodi.....	1022
<i>Xolboyeva Dilafruz Xayrulla qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy mazmundagi masalalar asosida ijodiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish	1026
<i>Ahmadjonova Intizor Iqboljon qizi, Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi</i>	
Tarbiyalanuvchilarda miqdor va son tushunchalariga doir ta'limiy o'yin faoliyatlari jarayonida ixtiyoriy diqqatini shakllantirish.....	1030
<i>Quysinova Shahlo Nasim qizi</i>	
Alaliyali bolalar bilan logopedik ishning tizimli yondashuvi	1035
<i>Irkinova Irodaxon Temirovna</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarni eshitish va talaffuzga paralel ravishda rivojlantirish: integratsiyalashgan yondashuv	1040
<i>Raximova Mahliyo Xasanboy qizi</i>	
Gender xususiyatlarning ijtimoiy shartlangan ko'rinishlari	1043
<i>Yulduzxon Mirzaaxmedova</i>	
Oliy ta'limda muhandislik fizikasi fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish	1047
<i>Butayeva Nargiza Buriboyovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini integrativ yondashuv asosida shakllantirish modeli.....	1051
<i>Askarova Zilolaxon Nurmuhomadovna</i>	
Sun'iy intellekt asosida ta'limni individuallashtirishning pedagogik asoslari	1055
<i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Toxirova Muattarxon Isroil qizi</i>	
Matematik fizika tenglamalari fanini o'qitishda yuqori tartibli differensial tenglamalar bo'limining o'rni va ahamiyati	1060
<i>Murzambetova Mexriban Begdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasida ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etish metodikasi	1064
<i>Fayziyeva Madinabonu Sohibjon qizi</i>	
O'tkir Hoshimovning realistik xarakter yaratish mahorati.....	1070
<i>Nortoijiyev Muxammad</i>	
Bolalar adabiyoti asarlarini tahlil qilishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlari	1073
<i>Xujamqulova Iroda Faxriddinovna</i>	
O'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning bolalarda bilish faolligini rivojlantirishdagi ahamiyati	1078
<i>Achilov Obid Muzrobovich</i>	
Maktab o'quvchilarida mustaqil ta'limni tashkil etish, o'tkazish va baholash metodikasi.....	1083
<i>Musayeva Gulnoza Yo'ldosh qizi</i>	
Bo'lg'usi pedagoglarda estetik kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	1087
<i>Bozorova O'g'iloy Komilovna</i>	
"Tekstari teorema" innovatsion pedagogik texnologiyasi	1093
<i>Yandasheva Sevara Ne'matjonovna</i>	
Technologies for Forming Students' Communicative Competence Based on Interdisciplinary Integration.....	1096
<i>Umida Eshmirzayevna Mamatkulova</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda elementar matematikaning o'rni	1101
<i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Badridinov Nusratbek Xusniddin o'g'li</i>	
Zamonaviy muhandisni tayyorlash texnologiyasi – kasbiy kompetentlikni shakllantirish imperativi sifatida	1105
<i>Axmedova Aziza Shokir qizi</i>	
Yengil atletika sportchilarida yadro itqitish harakati biomexanik ko'rsatkichlarining texnik samaradorlikka ta'siri	1110
<i>Djabbarov Axror Islomovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining sun'iy intellektdan foydalanish kompetensiyasini shakllantirish	1114
<i>Artikova Nargiz Shuxratovna</i>	
O'quvchilarni tayanch hayotiy kompetensiyalar orqali iqtisodiy bilimlarini shakllantirish	1118
<i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Sayfullayeva Dilnoza Amrullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda interfaol ta'lim metodlarining pedagogik samaradorligi.....	1123
<i>Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Oripova Shaxzodaxon Otamurod qizi</i>	



Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni ma'naviy tarbiya faoliyatiga tayyorlashning pedagogik mexanizmlari.....	1127
Rahmatjonzoda Ahrorjon Ahmad o'g'li	
Ta'lim transformatsiyasi sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida	1130
Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda oila va maktab hamkorligi	1135
Mamadaliyeva Gavxarxon Asiljonovna	
Pedagogik amaliyotda pedagogik mahoratni rivojlantirishning nazariy–amaliy asoslari	1139
Yunusova Feruza Maxamadolim qizi	
O'quvchilarda milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishning pedagogik aspektlari	1143
Hasanova Gulmira Hoshimjanovna	
Maktab yoshidagi o'quvchilarga she'riy asarlarni o'qitishga doir ayrim metodlar (O. Matjonning "Orolga yordam" she'ri asosida).....	1147
Alxiev Sitora Raximqul qizi	
Sport travmalaridan keyingi reabilitatsiyada jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari	1150
Begimqulov Oltiboy Jo'rayevich	
Demografik vaziyatning mohiyati va tarkibi	1155
Bomurodov Sanjar Bekturodovich	
Problems of Developing the Terminology System of the Uzbek Language.....	1159
Dilnoza Yuldasheva Bekturodovna	
Tarbiya darslarida guruh va jamoaviy o'yinlar orqali muloqot madaniyatini shakllantirish	1163
Menlibayeva Azima Oralbayevna	
Raqamlashtirilgan ta'limda talabalarni tanqidiy fikrlash asosida kommunikativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari.....	1166
Nuriddinova Xurshida Narpulatovna	
Raqamli ta'lim vositalarining boshlang'ich ta'limdagi afzalliklari	1169
Sattorova Mohira	
The Importance of Teaching Physics Through Modern Educational Trends	1172
Sharofutdinov Ikboljon Usmonjon ugli	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy rivojlanishida gender rollar nazariyasining amaliy ahamiyati	1176
Tolipova Noilaxon Nodir qizi	
Interfaol metodlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish	1183
Umida Bovanova Abduvahabovna, Bo'riboyeva Navbahor Faxriddinov	
Zamonaviy ilg'or xorijiy tajribalar asosida qon aylanish tizimi mavzusini o'qitishning innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari	1186
Xaqberdiyeva Sh. T.	
Ingliz tili darslarida kreativlikni oshirishda kuzatiladigan muammolar va ularni yechishga doir pedagogik yondashuvlar.....	1190
Yusupov Lutfullo Sayitturayevich	
Informatika fanini o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion ta'lim texnologiyalari ("Axborotlarni kodlash" mavzusi misolida).....	1194
Temirova Gulbahor G'ulomovna, Yusupova Nodira Nurdinova	
Boshlang'ich ta'limda o'quv veb-saytlari orqali til kompetentligini rivojlantirish	1201
Zokirova Sohba Muxtoraliyevna, Muxammadjonova Diyorabonu Muzaffarjon qizi	
Innovatsion ta'lim sharoitida "maktabgacha ta'limda menejment" fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlari	1204
Astanakulova Manzura Buribayevna	



ZAMONAVIY SHAROITLARD MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNI OLIB BORISH USLUBIYOTI VA UNGA QO'YILAYOTGAN TALABLAR



Ortiqova Nargiza Akramovna
Qo'qon DU dotsenti, PhD

Suvonqulova Muxabbat Otamurot qizi
Qo'qon DU talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borish uslubiyoti, shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali talabalarda siyosiy faollikni rivojlantirishning mazmuni, mohiyati, shakllari va vositalari yoritib berilgan. Tadqiqotda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning zamonaviy talablarga mos metodik asoslari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: demokratlashuv jarayonlari, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish metodikasi, zamonaviylashish, fuqarolik qadriyatlari, inson huquqlari, liberal erkinliklar.

Abstract: This article examines the methodology of organizing spiritual and educational activities, as well as the content, essence, forms, and means of developing students' political activism through spiritual and educational initiatives. The study analyzes methodological approaches to conducting spiritual and educational work in contemporary conditions.

Key words: democratization processes, methodology of organizing spiritual and educational work, modernization, civic values, human rights, liberal freedoms.

Аннотация: В статье рассматривается методика организации духовно-просветительской деятельности, а также содержание, сущность, формы и средства развития политической активности студентов посредством духовно-просветительских мероприятий. Анализируются методические подходы к реализации духовно-просветительской работы в современных условиях.

Ключевые слова: процессы демократизации, методика организации духовно-просветительской работы, модернизация, гражданские ценности, права человека, либеральные свободы.

KIRISH

Jamiatimizda ro'y berayotgan demokratlashuv jarayonlarining hozirgi bosqichida xalq manfaat va ehtiyojlaridan kelib chiqib, uning konseptual asoslari ham uzluksiz ravishda rivojlantirib kelinmoqda. Buning natijasida mamlakatimizda demokratik islohotlarning izchilligini ta'minlashning zamonaviy manbalarini yaratish jarayonlari muttasil ravishda ro'y bermoqda. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish metodikasini yaratish eng muhim vazifalardan biridir. Chunki har qanday ma'naviy-ma'rifiy tadbir metodik jihatdan puxta ishlab chiqilmasa, quruq safсатаbozlikdan nariga o'tmaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy sharoitda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish masalasi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar bilan chambarchas bog'liq holda talqin qilinmoqda. Xususan, E. Kurbanov Yangi O'zbekistonda demokratik islohotlarning nazariy-siyosiy evolyutsiyasini tahlil qilarkan, jamiyatda siyosiy va fuqarolik faolligini rivojlantirishda ma'naviy-ma'rifiy omillarning muhim o'rin tutishini asoslab beradi. Muallifning fikricha, demokratik tafakkur va siyosiy ongning shakllantirish jarayonida tizimli ma'naviy-ma'rifiy faoliyat barqaror rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Milliy taraqqiyot modeli doirasida ma'naviyat masalalariga yondashuv "Taraqqiyotning o'zbek modeli" asarida konseptual jihatdan asoslangan. Ushbu manbada jamiyatni modernizatsiya qilish jarayonida qadriyatlar, an'ana va ma'naviy merosning uzviyligi muhim omil sifatida ko'rsatiladi. Shuningdek, Inson huquqlari



bo'yicha O'zbekiston Milliy markazi tomonidan e'lon qilingan "Yangi O'zbekistonning barpo bo'lishi" nomli tahliliy materiallarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar demokratik islohotlarni amaliy jihatdan qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy mexanizm sifatida baholanadi.

Hududiy va xalqaro kontekstda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ahamiyati M. Nazirovning Markaziy Osiyodagi siyosiy jarayonlarga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarida ham o'z aksini topgan. Muallif siyosiy barqarorlik va ijtimoiy hamjihatlikka erishishda ma'naviy targ'ibot hamda ma'rifiy faoliyatning rolini alohida ta'kidlaydi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan Harakatlar strategiyasi hujjatlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning davlat siyosati darajasida ustuvor yo'nalish sifatida belgilanishi mazkur masalaning dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borish uslubiyoti va unga qo'yilayotgan talablarni ilmiy asosda o'rganish maqsadida bir qator empirik va nazariy metodlardan foydalanildi. Ma'lumotlar, asosan, normativ-huquqiy hujjatlar, rasmiy konseptual dasturlar, ilmiy maqolalar, monografiyalar hamda soha mutaxassislari tomonidan chop etilgan tahliliy materiallar asosida olindi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bo'yicha mavjud uslubiy qo'llanmalar va amaliy tajribalar ham tahlilga tortildi. Olingan ma'lumotlar taqqoslash, tizimlashtirish va mantiqiy umumlashtirish usullari orqali qayta ishlanib, mavzuga oid asosiy tendensiyalar va muammolar aniqlandi. Tahlil jarayonida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishning samaradorligi, mazmuni va zamonaviy talablar bilan uyg'unligi baholandi hamda xulosalar chiqarildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. **Tashkiliy ishlar.** Ta'lim muassasalari rahbariyati va jamoat tashkilotlari hamkorligida rektorat hamda jamoat tashkilotlari ishtirokida professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejalarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev tomonidan 2017- yil 7- fevraldagi farmoni bilan qabul qilingan "2017–2021- yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" buning yorqin misoli bo'ldi. Harakatlar strategiyasida yurtimizda olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatni har tomonlama jadal rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda jamiyat hayotining barcha sohalarini erkinlashtirish bo'yicha beshta ustuvor yo'nalish tasdiqlandi.

Muvaffaqiyatli mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, zamonaviylashish, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy siljishni maqsad qilgan jamiyatni isloh qilish, uni liberallashtirish va fuqarolik qadriyatlari, inson huquqlari hamda liberal erkinliklarning haqiqiy tashuvchisi bo'lgan mas'uliyatli fuqaroni shakllantirmay turib, bunday jarayonlarni tasavvur qilish murakkabdir. Shu munosabat bilan O'zbekiston islohotlarida avval boshidanoq jamiyat hayotining barcha jabhalarini liberallashtirishga katta e'tibor qaratilganligi qonuniydir.

Keyingi paytlarda ayrim o'quv yurtlarida yoshlar jamoat tashkilotlarining tashabbuskorligi susayib, ular faqat oylik badallarni yig'ish bilan, ba'zi joylarda esa tadbirkorlik deb, savdo-sotiq ishlarini tashkil qilish bilan cheklanib qolganligi sezilmoqda. Professor-o'qituvchilar va talabalar ma'naviyatini yuksaltirishda hamda ularni ma'rifatli qilishda bu tashkilotlarning rektorat bilan yaqindan hamkorligi juda zarur. Asosiy tashkiliy ishlar ularning tashabbusi bilan amalga oshirilsa, yanada maqsadga muvofiq bo'lar edi.

2. **Respublikamiz Prezidenti va Hukumatining ma'naviyat va ma'rifatga oid farmonlari hamda qarorlarini jamoada keng muhokama qilish, ulardan kelib chiqadigan vazifalarni belgilab olish.**
3. **Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" kengashi, viloyat, shahar va tumanlardagi tegishli bo'limlar bilan yaqindan hamkorlik o'rnatish, mazkur tashkilotlar xodimlari bilan doimiy uchrashuvlar o'tkazib turish.**
4. **Barcha fakultetlar talabalari o'qiydigan binolar va yotoqxonalarda "Ma'naviyat va ma'rifat" xonalarini tashkil etib, ularni jihozlash. Oliy ta'lim muassasalari va yotoqxonalarning asosiy kirish joylarida, kutubxona va o'quv zallarida xalqimizning ma'naviy boyligini hamda ma'rifatlilikini tarannum etuvchi "Yuksak ma'naviyat va ma'rifatlilik – mustaqil kelajagimiz garovi" mavzusida kitoblar va plakatlarni ko'rgazmasini tashkil qilish.**
5. **Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" kengashi va uning joylardagi tashkilotlari bilan hamkorlikda universitetda muntazam ravishda kitob savdosini tashkil etib turish.**
6. **Ixtisosligi yaqin o'quv yurtlari ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha prorektorlari, bo'lim boshliqlari, metodistlar va fakultetlar dekanlarining shu soha bo'yicha muvoynlari ishtirokida muntazam ravishda amalga oshirilayotgan ishlar, tajribalar va vazifalar yuzasidan seminarlar hamda anjumanlar o'tkazib borish.**



Oliy o'quv yurtlari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, o'rta umumta'lim maktablari va ishlab chiqarish korxonalarida tashkil qilinayotgan "Ma'naviyat maskani" shunchaki xo'jako'rsinga yoki ko'z-ko'z qilish uchun emas, balki sof ma'naviy va ma'rifiy ishlar natijasi o'laroq vujudga kelishi kerak. Kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, "Ma'naviyat maskani"da faqatgina ayrim tadbir va yig'ilishlar o'tkazilib, boshqa paytlarda yopib qo'yilmoqda. Albatta, "Ma'naviyat maskani"ni bunday tashkil etish to'g'ri emas. Fikrimizcha, "Ma'naviyat maskani" har bir jamoaning yuzi bo'lishi va jamoaning har bir a'zosi u yerdan ma'naviy ozuqa olishi lozim.

"Ma'naviyat maskani"ni tashkil etish uchun butun mamlakatimizda yagona andoza bo'lishi kerakmi?

"Ma'naviyat maskani"ni tashkil etish masalasiga nuqtayi nazardan qaralganda, yagona andoza zarur. Biroq mazmuni jihatidan yagona andozaning bo'lishi shart emas. Chunki har bir maktab, akademik litsey, kasb-hunar kolleji va oliy ta'lim muassasasi yoki tashkilot o'z imkoniyati va faoliyat yo'nalishidan kelib chiqib, mazmunan rang-barang "Ma'naviyat maskanlari"ni tashkil etishi maqsadga muvofiq.

Shunga qaramay, har qanday "Ma'naviyat maskani" umumiy talablarga javob berishi kerak.

Albatta, ushbu masala har bir jamoaning ixtiyoridagi ish. Ammo ko'pgina jamoalarda joy masalasi muammo bo'lishi ham mumkin. Shu nuqtayi nazardan biz o'z tavsiyalarimizni berishni ma'qul topdik:

1. Oliy o'quv yurtlari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va maktablarda "Ma'naviyat maskani"ni kutubxonaning qiroatxonasi (o'quv zali) yoki ma'ruza zallaridan birida tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Biroq bu xonaning keng va yorug' bo'lishiga alohida e'tibor berish kerak.
2. Barcha vazirliklar, davlat qo'mitalari, uyushmalar, korporatsiyalar, konsernlar, kompaniyalar, birlashmalar, banklar, muassasalar va ishlab chiqarish korxonalarining majlislar zalida tashkil etilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

"Ma'naviyat maskanlari"ni jihozlashda, asosan, quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- O'zbekiston Respublikasining Davlat ramzlari (Bayroq, Gerb, Madhiya) va ularning to'liq tasnifi;
- siyosiy-huquqiy qadriyatlarimiz (mamlakat xaritasi, Konstitutsiyamiz hamda milliy valyutamizni ifodalovchi lavhalar);
- ma'naviy-ma'rifiy islohotlarga oid farmonlar, farmoyishlar, qonunlar va qarorlar jamlanmasi;
- mustaqillik va ma'naviy-ma'rifiy islohotlarga oid O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov hamda amaldagi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevlarning asarlari va ularning qisqacha annotatsiyasi;
- milliy ma'naviyatimizning zabardast vakillari siymolari aks ettirilgan suratlar hamda ularning donishmandona fikrlaridan namunalar;
- xalqimizning madaniy merosi, an'analari va udumlarini aks ettiruvchi ko'rgazmalar;
- Respublika Ma'naviyat va ma'rifat Kengashi nashrlari, "Tafakkur" va "Jahon adabiyoti" jurnallarining barcha sonlari;
- "Ma'naviyat" nashriyotida chop etilgan asosiy kitoblar;
- "Tarbiya"ga doir darslik va qo'llanmalar, asosiy gazeta hamda jurnallar to'plami;
- diniy-axloqiy kitoblar, mazkur jamoa a'zolarining aql-salohiyati va nafosatini ifoda etuvchi namunalar.

"Tarbiya" darslarida hamda "Ma'naviyat kunlari"da doimo og'zaki bayon qilish uslubidan foydalanavermay, videojamlanma vositasida darslar tashkil etish juda katta samara bergan bo'lar edi. To'g'ri, ushbu yangilik akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarida moliyaviy mablag' talab etadi. Bunday muammoni homiyar va o'ziga baquvvat ishlab chiqarish korxonalari yordamida hal etish mumkin. Madaniy meros, urf-odat, an'ana va qadriyatlarimizni ifoda etuvchi videotasmalar "Ma'naviyat va ma'rifat" markazi, "Oltin meros" hamda "Mahalla" jamg'armalarining joylardagi bo'limlari, shuningdek, tuman xalq ta'limi metodistlari bilan hamkorlikda tayyorlansa, maqsadga muvofiq bo'ladi. "Ma'naviyat maskani"da videojamlanmani tashkil etish yosh avlodning ma'naviy tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

"Davlatchiligimiz tarixining qaysi bir davrini olib qaramaylik, Vatan timsollari aziz va muqaddas sanalgan. Har bir davrda ham davlat ramzlari va timsollari shunchaki siyosatni amalga oshirish vositasi bo'libgina qolmay, balki juda katta ijtimoiy-ma'naviy ahamiyat kasb etgan. Xalqimizning mustaqil va mustahkam davlat barpo etish g'oyasi, salohiyati va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligi, eng avvalo, davlat ramzlari va timsollarida o'z ifodasini topgan".



O'qituvchilar va o'quvchilar bilan o'tkaziladigan ma'rifiy ishlar

1. Barcha fanlarni o'qitishda ta'lim jarayonida asosiy e'tiborni talabalarni ma'naviyatli va ma'rifatli qilib tarbiyalashga qaratish.
2. Har o'quv yilining sentyabr oyida birinchi bosqich o'quvchilariga mustaqillik tamoyillarini chuqur singdirish maqsadida mustaqillik ramzlariga bag'ishlangan qo'shimcha darslar (10–20 soat) tashkil etish. (Mazkur darslarni ijtimoiy fanlar va adabiyot fanlari o'qituvchilari o'tkazsalar, maqsadga muvofiq bo'lar edi.)
3. Barcha talabalar uchun har chorshanba kuni darsdan so'ng muntazam o'tkazib turiladigan quyidagi ma'naviy-ma'rifiy o'quvlarni tashkil qilish:
 - 1- chorshanba – Prezidentimiz asarlari va nutqlarini o'rganish;
 - 2- chorshanba – Prezident farmonlari, Hukumat qarorlari va respublika qonunlarini o'rganish;
 - 3- chorshanba – axloqiy-ma'rifiy o'quvlar (bunda Qur'oni karim, hadis va din ilmining ko'zga ko'ringan namoyandalari asarlaridan ham keng foydalanish);
 - 4- chorshanba – bozor iqtisodiyoti munosabatlari o'quvi.

Ushbu o'quvlar tasdiqlangan jadval asosida tarix, falsafa, iqtisodiy nazariya, siyosatshunoslik, etika va estetika, odobnoma, huquq kafedralari professor-o'qituvchilarini to'liq jalb qilgan holda, Qur'oni karim, hadis ilmi hamda islom tarixini yaxshi biladigan mutaxassislar ishtirokida o'tkaziladi.

4. Barcha o'qituvchilar uchun har oyning juma kunlarida muntazam ravishda quyidagi ma'naviy-ma'rifiy o'quvlarni tashkil qilish:
 - a) Mustaqillik darslari (Prezident asarlari, nutqlari, farmonlari, qarorlari va qonunlarini o'rganish);
 - b) bozor iqtisodiyoti munosabatlari;
 - d) ma'naviyat darsi (talabalarga o'qilayotgan ma'naviyat asoslari bo'yicha, shuningdek, islom tarixi va qonun-qoidalarini yaxshi biladigan mutaxassislarni ham jalb etgan holda);
 - e) sharq pedagogikasi;
 - f) sharq falsafasi.

Ta'lim muassasasi miqyosida ma'naviyat va ma'rifat ishlari reja hamda tadbirlarini tuzish va ularni amalga oshirishda yana quyidagi vazifalarga e'tibor qaratish muhimdir:

- o'quv-tarbiyaviy ishlarni yuksak darajada tashkil qilish, o'quvchilar va talabalar dunyoqarashini kengaytirish maqsadida har bir fanni ma'naviy-ma'rifiy ruhda o'qitish;
- talabalar yotoqxonalariga birlashtirilgan ijtimoiy va umumiy oliy ta'lim muassasasi kafedralari tomonidan ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ish rejalarini muhokama qilinib, ularning bajarilishini nazorat qilish;
- mustaqillik va ma'naviyat mavzularida seminarlar tashkil etish;
- tarixiy yodgorliklar, ma'rifiy maskanlar, san'at koshonalari hamda mustaqillik davrida qad ko'targan inshootlarga o'quvchi-yoshlar va talabalarining ekskursiyalarini tashkil etish;
- mamlakatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlari bilan tanishtirishga yo'naltirilgan to'garaklar faoliyatini jonlantirish;
- "Siyosiy bilimdon", "Eng yosh faol siyosiy targ'ibotchi" tadbirlarini o'tkazish jarayonida ishtirokchilarning ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy va tarbiyaviy ishlardagi faolligiga e'tibor qaratish;
- ijtimoiy fanlar o'qituvchilari va xotin-qizlar uyushmasi hamkorligida talabalar o'rtasida "Men bo'lajak saylovchiman" mavzusida davra suhbatlari o'tkazish;
- barcha kurs va guruhlarda "Vatan tarixini bilmay turib, uni to'la sevib bo'lmaydi", "Vatan ostonadan boshlanadi" mavzularida davra suhbatlari, viktorinalar va ilmiy-tarbiyaviy soatlar tashkil etish;
- harbiy-sport to'garaklari ishlarini yanada jonlantirish, guruhlarda mardlik va jasurlik darslarini o'tkazish;
- maktablar hamda mahallalarda "Konstitutsiyamizni o'rganamiz", "Yoshlar – jamiyatning faol ishtirokchisi" kabi mavzularda suhbatlar, uchrashuvlar va ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil etish;
- jamoa yoshlarining umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida ma'naviy, iqtisodiy, huquqiy, ekologik, mehnat va estetik madaniyatini shakllantirish maqsadida taniqli san'atkorlar, huquqshunoslari, ta'lim va fan arboblari, mehnat faxriylari hamda sog'liqni saqlash xodimlari bilan ijodiy kechalar va uchrashuvlar uyushtirish;



- talaba qizlar ongini umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar, milliy istiqlol va mustaqillik mafkurasi asosida shakllantirish hamda ularning oila va jamiyat ishlaridagi faolligini oshirish maqsadida ta'lim muassasasida "Liderlar klubi" faoliyatini yanada jonlantirish;
- ma'naviyat va ma'rifat sohasidagi yangiliklardan muntazam xabardor bo'lib borish maqsadida jurnal va gazetalarga obuna bo'lishni tashkil etish;
- milliy mafkura va yoshlar tarbiyasi mavzusida universitet (ta'lim muassasasi) professor-o'qituvchilarining nazariy konferensiyasini o'tkazish;
- milliy udumlarimizdan bo'lgan "ustoz va shogirdlik" tizimi mohiyatini chuqur o'rganish asosida professor-o'qituvchilar va talabalar o'rtasida "ustoz-shogirdlik" tizimini yo'lga qo'yish.

Bularning barchasi ma'naviy va ma'rifiy ishlarning mazmuni hamda yo'nalishini anglatuvchi tadbirlardir. Zero, o'quv yurtlari talabalari orasida amalga oshiriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni shartli ravishda bir necha majmua (blok)ga ajratish mumkin. Ana shu majmualar asosida tuzilgan rejalar yoshlarga ma'naviy tarbiya berish darajasini ko'rsatuvchi mezon hisoblanadi. Mazkur majmualarning, masalan, birinchisi talaba-yoshlarning bilim doirasi, umummadaniyati va saviyasini yuksaltirishga qaratilgan viktorinalar, guruhlararo va kurslararo bilimdonlik hamda zukkolik musobaqalarini o'tkazishni o'z ichiga oladi. Bunda tashkilotchilar Vatanimiz, qardosh xalqlar, umumjahon adabiyoti va san'atiga oid savollar tuzib, ishtirokchilarning bilimlarini sinovdan o'tkazadilar hamda g'oliblarga tantanali tarzda sovrinlar topshiradilar. Bunday tadbirlar ishtirokchilarni faqat rag'batlantirish bilan cheklanmasligi, balki tengdoshlari orasida havas uyg'otishi, "Men ham shunday bo'la olamanmi?" degan intilishni shakllantirishi, g'oliblarni tantanali taqdirlash orqali boshqalarda ham shunday marralarni ko'zlash istagini uyg'otishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bir gap bilan aytganda, bilag'onlikni va zukkolikni talab etuvchi viktorina hamda musobaqa kabi tadbirlar ma'naviyat va ma'rifatni ulug'lovchi katta tashviqiy ahamiyatga ega bo'lishi lozim. Agar, bordiyu, bunday tadbirlar xorijiy tillarni bilish musobaqalariga mo'ljallangan bo'lsa, yanada maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki hozirgi paytda xorijiy tillarni mukammal o'rganmasdan turib, chinakam va barkamol inson sanalish qiyin bo'lib qoldi. Bu zamonamizning talabi, davr ehtiyojidir.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri til bilan bir qatorda milliy ma'naviyatni rivojlantirish masalasi bo'lib kelgan. Shu sababli ham O'zbekistonning demokratik jarayonlarga siyosiy rivoj berishi "demokratiyani joriy etishga majburlash" emas, aksincha, tadbiriy ravishda milliy qadriyatlarni tiklash, turli xalqlar va millatlar o'rtasida huquqiy hamda siyosiy madaniyatni shakllantirishga qaratilgan edi.

Ma'naviy va ma'rifiy ishlar yuzasidan o'tkaziladigan tadbirlarning muayyan majmui xalqimizning tarixi, urf-odatlar va rasm-rusumlari asosida tayyorlanib, talaba-yoshlarda milliy qadriyatlarga hurmat uyg'otish ruhida tashkil etilishi muhimdir. Shu bilan birga, milliy o'ziga xoslikka haddan tashqari e'tibor qaratib, boshqa millatlarning an'analari va urf-odatlarini kamsitish yoki behurmat qilishga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Milliy qadriyatlar asosida tashkil etiladigan tadbirlar umuminsoniy qadriyatlar bag'rida, ular bilan ichki va uzviy aloqadorlikda o'tkazilishi lozim. Jumladan, xalqimizning to'ylari haqida so'z borganda, tarixan bir hududda yonma-yon yashab kelgan, hozirgi kunda Respublikamizda bahamjihat istiqomat qilayotgan turli millat va elatlarning to'ylari bilan qiyoslash orqali, boshqa millat va elatlarning urf-odatlariga nisbatan ham hurmat hissini uyg'otish maqsadga muvofiqdir. Ayni paytda, xalqimizning to'ylaridagi ayrim nomaqbul jihatlari, xususan, ortiqcha sarf-xarajatlar, keragidan ziyod hasham va shuhrat qozonish maqsadidagi "behuda bel sindirishga" urinishlarni tanqidiy baholashga ham ma'lum darajada e'tibor qaratilishi lozim. Natijada, bunday tadbirlarning ma'rifiy jihati yanada kuchayadi.

Talaba-yoshlarga harbiy-vatanparvarlik, milliy qadriyatlar hamda ona Vatanni ulug'lashga yo'naltirilgan ko'rik-tanlovlar, viktorinalar, kechalar va munozaralar kabi tadbirlarni tashkil etish mumkin. Bunday tadbirlarning xilma-xil bo'lishi katta ahamiyatga ega. Shu bois ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasi tuzilayotganda talaba-yoshlarning xohish-istaklarini ham inobatga olish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun "Siz joriy yilda ma'naviy va ma'rifiy mavzularda qanday tadbirlar o'tkazilishini istadingiz?" degan savol asosida so'rovnoma o'tkazish foydali bo'ladi. Umuman olganda, talaba-yoshlar orasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirish ham maroqli, ham mas'uliyatli vazifa bo'lib, bunda tashkilotchilarning izlanuvchanligi va topqirligi muhim omil hisoblanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qonun hujjatlarini tarqatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // Xalq so'zi, 2017- yil 9- fevral. – № 29 (6723).
2. E. Kurbanov. Yangi O'zbekistonda demokratik islohotlarning nazariy-siyosiy evolyutsiyasi // <https://ijtimoiy.uz/2191/>, 2023.
3. Taraqqiyotning o'zbek modeli. – T.: "Ijod dunyosi", 2002- yil.
4. Yangi O'zbekistonning barpo bo'lishi: islohotlarning birinchi bosqichi natijalari va keyingi taraqqiyot vazifalari // Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Milliy markazi, 2023- yil. <http://pravacheloveka.uz/oz>.
5. Nazirov, M. O'zbekistondagi siyosiy o'zgarishlarning Markaziy Osiyoning barqaror rivojlanishiga ta'siri // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, VOLUME 1 | ISSUE 11, 2021.
6. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. – Rasmiy nashr. Tashkent: Adolat, 2017, 112 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.